XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 5 - yanvar VI-57-1-12-0-K/23 Xorazm viloyati hokimligi

Xorazm viloyatining 2023-yilgi

mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, 2022-yil 30-dekabrda “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1018-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Xorazm viloyati mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 2 719,2 mlrd so‘m, xarajatlari 4 160,6 mlrd so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 1 441,4 mlrd so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2024-2025-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2023-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Xorazm viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2023-yil uchun shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023-yil uchun viloyat budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 15 605,2 mln so‘m miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan mablag‘dan tashqari) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2023-yil uchun viloyat budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 8 001,0 mln so‘mni hamda tumanlar va shaharlar budjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan-yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- aylanmadan olinadigan soliq;

- davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

- ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek

avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

- davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

v) 4-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

- benzinni, dizel yonilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Achilov), Moliya bosh boshqarmasi (M.Iskandarov), Davlat soliq boshqarmasi (X.Abdukarimov) tuman (shahar) hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Xorazm viloyat boshqarmasi xalq ta’limi, maktabgacha ta’lim va sog‘liqni saqlash boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

- budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

- budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

- o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

14. Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi

hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

- Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga;

- mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

15. Viloyat, tumanlar va shaharlar hokimliklari:

- tuman va shahar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

- viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlari agentligi, tuman (shahar) hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

- mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

16. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Achilov), xalq deputatlari viloyati Kengashi kotibiyati, tuman va shahar hokimliklari, tegishli boshqarma boshliqlari:

- mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

- ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Viloyat hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya pravda” gazetalarida rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi E.Babajanov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **A.Radjabov**

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-57-1-12-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023 yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2024-2025 yillarga maqsadli mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2023 yil uchun prognoz	2024 yil uchun mo‘ljal	2025 yil uchun mo‘ljal
1.	**Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘mda**	**37 810,6**	**42 359,8**	**47 239,6**
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	105,4	107,4	107,6
3.	Iste’mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	x	x	x
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	110,4	111,0	111,3
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,4	103,3	103,4
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	109,0	109,4	109,7

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-57-1-12-0-K/23-son qaroriga
2-ilova

Xorazm viloyatining viloyat mahalliy budjeti daromadlarining 2023 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**1 423 646 700,0**
1	Foyda solig‘i	363 622 000,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i *(jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)*	674 727 700,0
4	Aksiz solig‘i, jami	79 936 000,0
	shu jumladan:	
	- benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*79 936 000,0*
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	28 465 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
11	Qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (*patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari*)	114 359 000,0
12	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar	82 185 000,0
13	Davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar	25 000 000,0
14	O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tegishli ravishda ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	867 000,0
15	Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (*bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari*)	54 485 000,0

17	Boshqa tushumlar	

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-57-1-12-0-K/23-son qaroriga
3-ilova

2023 yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Summa
Viloyatning viloyat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar jami		**3 239 548 232,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 540 523 752,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	0,0
	Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash	6 500 000,0
	Advakatlik xizmati xarajati	1 100 000,0
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish	19 479 578,0
	Prezident ta’lim muassasalari qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	50 000 000,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	180 524 398,0
	Xorazm viloyati shahar va tumanlarning budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari	1 441 420 504,0
1.	**Xorazm viloyati Xalq ta’limi boshqarmasi**	**345 034 156,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	264 804 253,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	80 229 903,0
2.	**Prezident ta’lim muassasalari agentligining Xorazm viloyati bo‘limi tizimidagi muassasalar**	**72 539 549,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	72 539 549,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
3.	**Xorazm viloyati Maktabgacha ta’lim boshqarmasi**	**43 098 077,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 931 204,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	39 166 873,0
4.	**Xorazm viloyati Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi**	**1 023 382,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 023 382,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
5.	**Xorazm viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**473 117 533,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	433 460 633,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	39 656 900,0
6.	**Uzbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi**	**36 344 877,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	36 344 877,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
7.	**Xorazm viloyati Madaniyat boshqarmasi**	**46 846 283,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	46 846 283,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
8.	**Viloyat sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi**	**90 493 802,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	90 493 802,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9.	**Xorazm viloyati Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi**	**31 250 088,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	26 750 088,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	4 500 000,0
10.	**Xorazm viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**2 626 051,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 626 051,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
11.	**O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va ximoyasi agentligi Xorazm viloyati bo‘limi**	**10 938 465,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 938 465,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12.	**Xorazm viloyati Irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi**	**169 378 501,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	154 779 179,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	14 599 322,0
13.	**Xorazm viloyati Transport boshqarmasi**	**9 007 653,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 007 653,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14.	**Xorazm viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining hududiy boshqarmasi**	**8 941 322,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 941 322,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15.	**Xorazm viloyati Turizm va madaniy me’ros boshqarmasi**	**3 263 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 263 000,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

16.	**Xorazm viloyati O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi**	**4 161 994,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 161 994,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17.	**Xorazm viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi**	**7 357 320,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 357 320,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18.	**Xorazm viloyati Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi**	**1 461 765,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 461 765,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
19.	**Xorazm viloyati Davlat aktivlarini boshqarish agentligi**	**1 811 581,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 811 581,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
20.	**Xorazm viloyati Bandlik va mehnat munosabatlari boshqarmasi**	**2 004 969,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 004 969,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
21.	**Xorazm viloyati Qurilish boshqarmasi**	**2 372 654,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 372 654,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
22.	**Xorazm viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshkarmasi**	**7 113 243,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	7 113 243,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
23.	**Xorazm viloyati Adliya boshqarmasi**	**8 059 243,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 059 243,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
24.	**Xorazm viloyati iktisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi**	**12 582 688,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 582 688,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
25.	**Xorazm viloyati hokimligi**	**24 470 092,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	24 470 092,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
26.	**Uzbekiston Kinematografiya agentligi Xorazm viloyati xududiy blimi**	**129 528,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	129 528,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
27.	**Xorazm viloyati moliya bosh boshqarmasi, viloyat bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi, Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi**	**1 494 317 019,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	33 416 937,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	Fuqarolarga yetkazilgan zararni koplash	0,0
	Advakatlik xizmati xarajati	0,0
	Ichki va tashqi qarzga xizmat ko‘rsatish	19 479 578,0

	Prezident ta’lim muassasalari qurish uchun jalb etilgan qarz mablag‘larini qaytarish xarajatlari	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	Xorazm viloyati shahar va tumanlari mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	1 441 420 504,0
28.	**Xorazm viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi**	**1 143 296,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 143 296,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
29.	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Xorazm viloyatidagi muassasalar**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
30.	**Xalq deputatlari viloyat Kengashi**	**498 466,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	498 466,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
31.	**Xorazm viloyati saylov komissiyasi**	**70 752,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	70 752,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
32.	**Xorazm viloyati O‘zarxiv boshqarmasi**	**2 894 363,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 894 363,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
33.	**Xorazm viloyati Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**2 083 276,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 083 276,0
	shundan:	

	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
34.	**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Xorazm viloyati boshkarmasi**	**3 810 143,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 810 143,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
35.	**Xorazm viloyati mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash boshqarmasi**	**1 817 983,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 817 983,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
36.	**Uzbekiston Respublikasi Pillachilik va korakulchilik rivojlantirish kumitasining Xorazm viloyati hududiy bo‘limi**	**158 998,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	158 998,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
37.	**Boshqa tashkilotlar**	**259 726 120,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	257 354 720,0
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	2 371 400,0

Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-57-1-12-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno*	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Urganch shahri	100	10	100			100	100	100	100	100	100
2	Bog‘ot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
3	Gurlan tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
4	Qo‘shko‘pir tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
5	Urganch tumani	100	20	100		100	100	100	100	100	100	100
6	Hazorasp tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
7	Xonqa tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
8	Shovot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
9	Yangiariq tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
10	Yangibozor tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
11	Xiva tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
12	Xiva shahri	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100
13	Tuproqqal’a tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-57-1-12-0-K/23-son qaroriga
5-ilova

Mahalliy budjetlarning 2023 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	**2 719 195 531,0**	**4 160 616 034,0**
Viloyat budjeti	1 423 646 700,0	1 798 127 728,0
Urganch shahri	154 013 767,0	195 144 770,0
Bog‘ot tumani	101 876 962,0	214 273 424,0
Gurlan tumani	99 893 894,0	199 711 407,0
Qo‘shko‘pir tumani	100 600 625,0	231 768 147,0
Urganch tumani	112 528 749,0	199 670 466,0
Xazorasp tumani	115 382 747,0	200 028 134,0
Xonqa tumani	129 477 690,0	219 368 857,0
Shovot tumani	110 345 713,0	221 164 334,0
Yangiariq tumani	77 389 808,0	165 138 551,0
Yangibozor tumani	57 693 182,0	123 963 362,0
Xiva tumani	87 964 090,0	190 150 393,0
Xiva shahri	66 725 060,0	109 316 551,0
Tuproqqal’a tumani	81 656 544,0	92 789 910,0

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-57-1-12-0-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2023 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori
JAMI		**1 441 420 504,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	374 481 029,0
2	Urganch shahri	41 131 003,0
3	Bog‘ot tumani	112 396 462,0
4	Gurlan tumani	99 817 513,0
5	Qo‘shko‘pir tumani	131 167 522,0
6	Urganch tumani	87 141 717,0
7	Hazorasp tumani	84 645 387,0
8	Xonqa tumani	89 891 167,0
9	Shovot tumani	110 818 621,0
10	Yangiariq tumani	87 748 743,0
11	Yangibozor tumani	66 270 180,0
12	Xiva tumani	102 186 303,0
13	Xiva shahri	42 591 491,0
14	Tuproqqal’a tumani	11 133 366,0

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2023 yil 5 yanvardagi
VI-57-1-12-0-K/23-son qaroriga
7-ilova

Viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Miqdor
JAMI		**17 747 000,0**
	shundan	
1	Viloyat budjeti	8 001 000,0
2	Urganch shahri	860 000,0
3	Bog‘ot tumani	792 000,0
4	Gurlan tumani	803 000,0
5	Qo‘shko‘pir tumani	832 000,0
6	Urganch tumani	896 000,0
7	Hazorasp tumani	856 000,0
8	Xonqa tumani	758 000,0
9	Shovot tumani	838 000,0
10	Yangiariq tumani	697 000,0
11	Yangibozor tumani	535 000,0
12	Xiva tumani	889 000,0
13	Xiva shahri	552 000,0
14	Tuproqqal’a tumani	438 000,0